

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Qashqadaryo viloyatidagi qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni rivojlantirishning ilmiy- amaliy asoslari

Rasulov Xurshid Qaxxorovich

Научные исследования и инвестиции в регион научно- практическая база страны

Расулов Хуршид Каххорович

Scientific research and investments investments in the region scientific and practical base of the country

Rasulov Khurshid Kakhkhorovich

Received: May 15, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida agrar sohaga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning ilmiy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Tadqiqot doirasida qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan kapital qo'yimalarning iqtisodiy-ijtimoiy natijalari tahlil qilinib, mavjud holat chuqur o'rganilgan. Xususan, viloyatda amalga oshirilayotgan paxtachilik, don yetishtirish, meva-sabzavotchilik hamda chorvachilik sohalaridagi investitsion tashabbuslar va ularning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash jarayonida yuzaga kelayotgan suv ta'minoti, texnologik asbob-uskunalar va infratuzilma bilan bog'liq muammolar tahlil etilgan. Maqolada zamona-viy agrotexnologiyalarni tatbiq etish, ekologik muvozanatni saqlab qolish hamda mintaqadagi investitsion muhitni yanada yaxshilashga doir amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** investitsiya muhiti, meva-sabzavot, eksport salohiyati, iqtisodiy rivojlanish, ekologik texnologiyalar, paxtachilik, suvni tejash, g'alla yetishtirish, infratuzilma, chorvachilik, innovatsion texnologiyalar, qishloq xo'jaligi sohasi, investitsiyalar, oziq-ovqat ishlab chiqarish.
- **Аннотация:** Статья посвящена анализу научно-практических основ стимулирования инвестиционной активности в аграрном секторе Кашкадарьинского региона. Исследуются масштабы и направления вложений в отрасли сельского хозяйства, включая хлопководство, зерновое производство, плодоводство, овощеводство и животноводство. Освещены достигнутые экономические и социальные результаты, наряду с существующими проблемами в области водных ресурсов, инфраструктуры и внедрения технологических инноваций. Авторами предложены практические рекомендации по укреплению инвестиционного климата, внедрению экологически устойчивых подходов и модернизации сельскохозяйственного производства.

- **Ключевые слова:** зерновое производство, инвестиции, аграрный сектор, экологические технологии, экспортный потенциал, овощеводство, инфраструктура, водосбережение, инновационные технологии, экономическое развитие, Кашкадарьинская область, хлопководство, плодоводство, инвестиционный климат, животноводство.
- **Abstract:** The article examines the scientific and practical aspects of fostering investment growth in the agricultural sphere of the Kashkadarya region. It analyzes the scale and impact of capital inflows into sectors such as cotton production, grain farming, fruit and vegetable cultivation, and livestock. The research highlights the socio-economic benefits attained through these investments, while also discussing barriers such as water resource constraints, infrastructure limitations, and lagging technological adoption. The paper presents a set of proposals aimed at enhancing the investment environment, promoting sustainable technologies, and strengthening agricultural development.
- **Keywords:** investment environment, vegetables and fruits, export capacity, economic growth, eco-technologies, cotton cultivation, water efficiency, grain farming, Kashkadarya region, infrastructure, livestock, innovative solutions, agricultural sector, investments, food production.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi katta o'rin tutadi. Boshqa tarmoqlarga nisbatan uning ahamiyati yanada kuchayib bormoqda, chunki qishloq xo'jaligi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda va aholi farovonligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati, o'zining iqlimi va tuproq sharoitlari bilan qishloq xo'jaligiga mos hududlardan biridir. Viloyatning iqtisodiy rivojlanishi asosan qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlariga bog'liq. Qashqadaryo viloyatining o'ziga xos resurslari va imkoniyatlari mavjud. Biroq, bu salohiyatni to'liq amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish zarur. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning hozirgi holati, mavjud muammolar va istiqbollar, shuningdek, investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida qishloq xo'jaligi sohasidagi investitsion faoliyatni tahlil qilish uchun statistik, tahliliy va solishtirma yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi sifatida tizimli

tahlil, dinamik ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash hamda real statistik ma'lumotlarga asoslangan empirik yondashuvlar qo'llanildi.

Asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlari tahlil qilindi. 2023-2024-yillarga oid investitsiya hajmlari, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va kichik tadbirkorlik subyektlarining ishtiroki bo'yicha olingan raqamlar asosida amaldagi holat o'rganildi.

Bundan tashqari, sohani yanada chuqur o'rganish maqsadida Review.uz kabi tahliliy axborot portallarida e'lon qilingan maqolalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy portalida berilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

Tahlil qilingan raqamlar va sifat ko'rsatkichlari asosida xulosa va takliflar ishlab chiqildi hamda viloyat miqyosida qishloq xo'jaligi sohasidagi innovatsion-investitsion salohiyatni yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rsatib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning hajmi va samaradorligi yil sayin ortib bormoqda. Xususan, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 104,2 foizni tashkil etgani ushbu sektorga yo'naltirilgan sarmoyalar real iqtisodiy o'sishga olib kelayotganini tasdiqlaydi.

1-jadval.


Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (foizda) [3]

KO'RSATKICHLAR	2022 YIL	2023 YIL	2024 YIL (YAN-SEN)
Umumiy qishloq xo'jaligi	100.0	102.8	104.2
Dehqonchilik	100.0	103.2	105.3
Chorvachilik	100.0	101.9	103.5

Dehqonchilikda yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Bu, birinchidan, zamonaviy agrotexnikalar, suv tejovchi texnologiyalar va urug'lik sifati yaxshilanganini anglatadi. Chorvachilikda esa genofondni yaxshilash va yem bazasini kengaytirish bo'yicha olib borilgan ishlar natija bermoqda. Dehqonchilik mahsulotlari hajmining 105,3 foizga, chorvachilik mahsulotlarining esa 103,5 foizga oshgani agrar sektordagi ichki tarkibiy muvozanatning tiklanayotganidan, mavjud imkoniyatlar to'laqonli ishga solinayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, dehqonchilikda suv tejovchi texnologiyalar, zamonaviy urug'lik materiali va agrotexnik tadbirlarning izchil tatbiq etilishi yuqori hosildorlikka erishishda muhim

omil bo'lmoqda.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi faolligi ortib bormoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27 868,5 mlrd. so'mni tashkil etib, umumiy mahsulot hajmida salmoqli ulushni egalladi. Bu holat tadbirkorlikni rag'batlantirish, subsidiya va kredit siyosatining to'g'ri yo'naltirilgani, infratuzilmaviy sharoitlarning yaxshilangani bilan bog'liqdir. Natijada, qishloq aholisi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini ko'paytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari kengaymoqda.



2-grafik. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd. so'mda) [3]

Grafikda 2024-yilda kichik tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi deyarli 27,9 trillion so'mga yaqinlashganini ko'rish mumkin. Jumladan, 2024-yilda 2022-yilga nisbatan 144%ga, 2023-yilga nisbatan esa 121%ga o'sish qayd etilganini ko'rish mumkin. Bu esa sohada subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va yengil soliq rejimlari orqali tadbirkorlikni faol rag'batlantirish natijasidir.

Viloyatda amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalar esa bu tendensiyani yanada kuchaytirmoqda. Jumladan, 370 million AQSh dollariga teng 33 ta loyiha ustida ish olib borilmoqda. Ularning asosiy yo'nalishlari sifatida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini

oshirish ko'zda tutilgan. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymat zanjirini to'liq shakllantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotga qo'shimcha impuls berishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatida mavjud tabiiy resurslar — yer, suv, yaylovlar va mehnat zaxiralari raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali samarali boshqarilmoqda. Ayniqsa, yer fondining maqbullashtirilishi, suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish, agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda rejalashtirish kabi chora-tadbirlar investitsiyalarning daromadlilikini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

2-jadval.

Viloyatdagi yirik investitsion loyihalar soni va hajmi [3]

KO'RSATKICH	MIQDORI
Yirik loyihalar soni	33 ta
Umumiy qiymati	370 mln. AQSh dollari
Asosiy yo'nalishlar	Oziq-ovqat, qayta ishlash, eksport

innovatsion-investitsion faoliyat tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud iqtisodiy siyosat agrar sohani modernizatsiya qilish, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay investitsiyaviy muhit yaratishga xizmat qilmoqda. Bu esa viloyat agrar sektori uchun uzoq muddatli barqaror rivojlanish poydevorini mustahkamlaydi.

Aytish mumkinki, Qashqadaryo viloyatida innovatsion-investitsiyaviy faoliyatni kengaytirish orqali:

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va sifati oshmoqda;
- Tadbirkorlik subyektlari faollashmoqda;
- Ish o'rinlari ko'paymoqda;
- Investitsiyalarning daromadliligi ortmoqda.

Bu esa agrar sohaning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil sifatida ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, meva-sabzavotchilik, g'allachilik, paxtachilik va chorvachilik yo'nalishlaridagi investitsion tashabbuslar ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalar berayotgan bo'lsa-da, mavjud muammolar ularning samaradorligini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xususan, suv omborlari, irrigatsiya tarmoqlari va logistika tizimlarini yangilash zarur.
2. Suv resurslaridan foydalanishda tejamkor texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari) keng joriy etish orqali suv tanqisligi muammosini kamaytirish lozim.
3. Innovatsion agroteknologiyalarni ommalashtirish maqsadida tadbirkor fermer xo'jaliklariga texnik yordam ko'rsatish, subsidiya va imtiyozli kredit mexanizmlarini kengaytirish kerak.
4. Mahalliy va xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash orqali investitsiya muhitini yaxshilash, xususan, eksportbop mahsulotlar yetishtirishga yo'naltirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash lozim.
5. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, zamonaviy laboratoriyalar, o'quv-tajriba markazlari tashkil qilish orqali innovatsiyalarni ishlab chiqarishga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq.

6. Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun agroekotizimlarga mos keladigan texnologiyalarni joriy etish, intensiv ekin aylanish tizimlarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi takliflar asosida Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligining investitsion jozibadorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'paytirish va mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, taklif etilgan choralar respublika miqyosida agrar sohaning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Rasulov Xurshid Qaxxorovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, mustaqil izlanuvchi / Расулов Хуршид Каххорович Университет информационных технологий и управления, независимое исследовательское учреждение / Rasulov Khurshid Kakhkhorovich University of Information Technology and Management, independent research institution

► khurshid8502@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-9862-8236>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-martdagi PQ-186-sonli "Qishloq xo'jaligida investitsiya loyihalarini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi "Agrosanoat majmuasida innovatsion faoliyatni kuchaytirish to'g'risida"gi qarori.
- [3]. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. – Qarshi, 2022–2024 yillar statistik to'plamlari.
- [4]. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Issues of Increasing the Investment Potential of the Regions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 93-98.
- [5]. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Современный экономический механизм развития сельского хозяйства. *Вестник науки и образования*, (5-1 (83)), 41-45.
- [6]. Бердиев, А. Х. (2020). Использование инноваций в сельском хозяйстве является главным фактором эффективности. *Вестник науки и образования*, (3-2 (81)), 9-14.
- [7]. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Prospects for Cluster Activities in the Agricultural Sector: Problems and Solutions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 99-108.